

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**AKRAMOV KOMILJON SHUHRAT O'G'LI**

**TOVUQLAR NEMATODOZLARINING TARQALISHI, DAVOLASH VA  
OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI**

03.00.06-Zoologiya  
*(veterinariya fanlari)*

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand-2024**

UO‘K: 619:636.3:616.9:616.084

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление диссертации доктора философии (PhD) по ветеринарным  
наукам.**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciens**

**Акромов Комилжон Шухрат о‘g‘li**

Tovuqlar nematodozlarining tarqalishi, davolash va oldini olish chora-  
tadbirlari..... 3

**Акромов Комилжон Шухрат угли**

Распространение, лечение и меры профилактики нематодозов  
кур.....21

**Акромов Комилжон Шухрат о‘g‘li**

The spread of chicken nematodosis, treatment, and preventive  
measures.....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**AKRAMOV KOMILJON SHUHRAT O'G'LI**

**TOVUQLAR NEMATODOZLARINING TARQALISHI, DAVOLASH VA  
OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI**

03.00.06-Zoologiya  
*(veterinariya fanlari)*

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand-2024**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/V111 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме) ilmiy kengash veb sahifasida (www.viti.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djabbarov Shuxrat Abdumajidovich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Gafurov Aktam Gafurovich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Nasimov Shuxrat Naimovich**  
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti**

Disertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD06/29.10.2021.V.139.01 raqamli ilmiy Kengashning 2024-yil «10» 12. soat 10.00 majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog'i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76; e-mail: nivi@vetgov.uz)

Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4691- raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog'i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «27» 11. kuni tarqatildi.  
(2024-yil «27» 11. dagi 15 -raqamli reestr bayonnomasi)



**B.A.Elmuurodov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
vet.fan doktori, professor

**F.S.Pulotov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, vet.f.f.d., katta ilmiy xodim

**G.H.Mamadullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.fan  
doktori, katta ilmiy xodim

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda gelmintlar global miqyosda keng tarqalgan, parrandalarda parazitlik qiladigan gelmintozlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga bag'ishlangan «So'ngi o'n yillikda Afrikada 92 ta, Osiyoda 72 ta, Yevropada 21 ta va Shimoliy Amerikada 6 ta jami 191 ta tadqiqot ishlari bajarilgan. Xonadonlarda va yerda saqlanadigan tovuqlarning 31 foizdan 100 foizgacha gelmintozlar bilan zararlanganligi, 90 % gacha holatda asosan nematodozlar bilan zararlanish aniqlangan»<sup>1</sup>. «Birgina tovuqlarda mavjud gelmintozlar orqali tovuqlarning tuxumdan qolishi, yosh parrandalarning o'sish va rivojlanishdan ortda qolishi, go'sht mahsuldorligining kamayishi shuningdek hayvon organizmining yuqumli kasalliklarga nisbatan rezistentligining pasayishi, gelmintlar yetkazgan mexanik jarohatlar orqali «infeksiya darvozasi» yuzaga kelishi, hayvonlarning nobud bo'lishi parrandachilik xo'jaliklarida, aholi xonadonlarida iqtisodiy chiqimning sezilarli darajada ortishiga sabab bo'ladi»<sup>2</sup>.

Dunyo miqyosida tovuqlar oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy oqsil manbai hisoblanadi. FAO bergan ma'lumotlarga ko'ra, aholini ekologik toza, sifatli, arzon va parhezboq parranda mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida oxirgi o'n yil davomida tuxum yetishtirish 2 barobarga, parranda go'shti yetishtirish 3 barobarga oshdi, dunyoda aholi xonadonlarida 6,8 milliard boshdan ortiq parrandalar mavjud bo'lib ularning mahsuldorligini oshirish bilan bir qatorda parrandalarni turli kasalliklar, xususan gelmintozlardan asrash muhim ahamiyat kasb etdi. «Tovuqlarni turli xildagi gelmintozlardan asrash zarurati tufayli hududlarda mavjud gelmintozlarning tarqalish darajasini aniqlash va yuqori samarali, yangi antigelmint preparatlarni yaratish ustida ko'plab mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda»<sup>3</sup>.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida parrandachilikni jadal rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda parrandalar soni va mahsuldorligini ko'paytirish, shuningdek parrandalarning turli xil yuqumli, yuqumsiz va parazitlar kasalliklarini oldini olish hamda parrandachilikni rivojlantirishda tizimli tadbirlarni yo'lga qo'yilishiga erishildi. Gelmintozlar hayvonlar va parrandalarning o'sish va rivojlanishi hamda mahsuldorligini sezilarli darajada kamaytiradigan kasalliklar hisoblanadi. Gelmintlar parranda (tovuq)larning turli ichki a'zolari va to'qimalarida, asosan, oshqozon-ichak yo'llarida joylashib olib hazmlanayotgan ozuqa, qon va to'qimalari bilan oziqlanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra tovuqlar orasida nematodozlar bilan zararlanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lib 24,13 foizdan 58,04 foizgachani tashkil etadi. Buning natijasida parrandachilik xo'jaliklarida sezilarli darajada (bir yil davomida 2 trl 695 mlrd 181 mln so'mdan oshiq) iqtisodiy zarar kuzatiladi.

<sup>1</sup> Anwar Shifaw., Teka F., Stephen W., Brendan Sh., Timothy E., Isabelle Ruhnke Global and regional prevalence of helminth infection in chickens over time: a systematic review and meta-analysis. Poultry Science Volume 100, Issue 5, May 2021, 101082

<sup>2</sup> Огіпов А.О. va boshqalar. Veterinariya gelmintologiyasi. // qo'llanma. Toshkent, 2016. 198-201 b.

<sup>3</sup> Кибакін В.В. Основные гельминтозы кур и меры борьбы с ними в условиях Алтайского края и Восточной Сибири. // Автореф. Д.в.н. Тюмень, 2005.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»<sup>4</sup>gi PF-60-sonli farmoni, 2021-yil 31-martdagi «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»<sup>5</sup>gi PQ-5017-son va 2021-yil 14-iyundagi «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»<sup>6</sup>gi PQ-5146-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-iyuldagi «Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo‘jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risida»<sup>7</sup>gi 434-son qarorlariga muvofiq Respublikamiz iste‘mol bozorida go‘sht, sut, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohalarida ozuqa bazasini kengaytirish ko‘zda tutilgan hamda boshqa meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya doirasidagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotlarning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan parrandachilikda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida parrandalarning bosh soni yildan yilga ko‘payib, mahsuldorligi ortib bormoqda. Bu borada dunyo miqyosida turli geografik-iqlim mintaqalarida chorva hayvonlari va parrandalar gelmintozlarining tur tarkibi va ularning tarqalish darajasi aniqlangan. Tovuqlar gelmintozlarini o‘rganish borasida Uzoq xorijiy mamlakatlarda tovuq (parranda)lar gelmintlarini aniqlash bo‘yicha E.I.Rexviashvili, D.Dusyinski, L.Cucho, S.Upton, D.A.Armstrong, G.B.Malone, C.Mage, N.Mainge, S.Mathenge va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan bo‘lsa, MDH davlatlari olimlaridan A.V.Zubov, M.Sh.Akbaev, A.X.Volkov, R.T.Safiullin, V.V.Kibakin va ularning shogirdlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Shuningdek O‘zbekiston sharoitida parrandalar gelmintozlarining epizootologiyasi, davolash, profilaktika chora-tadbirlari bo‘yicha ko‘plab olimlar, jumladan A.O.Oripov, R.B.Davlatov, F.D.Akramova, V.D.Alimova, M.Odilova, M.A.Sultanov, Sh.A.Djabbarov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo mazkur tadqiqotlarda ham gelmintozlar tomonidan keltirib chiqariladigan zararni oldini olishda iqtisodiy samaradorli chora-tadbirlar yaratilmagan.

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli Farmoni.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5017-sonli Qarori.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5146-sonli Qarori.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo‘jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risida»gi 434-sonli Qarori.

Respublikamizda xo‘jalik yuritishning yangi shakllari klasterlar, fermer, shirkat, yordamchi va dehqon fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi tovuq (parranda)larni parvarishlash, saqlash hamda ko‘paytirishga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Xususan, tovuqlar va boshqa tur uy parrandalarida uchraydigan turli gelmintoz kasalliklarni davolash, oldini olish va qarshi kurashda zamonaviy samarali usullarini ishlab chiqish va qo‘llash, ularning oldini olishdagi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasining ilmiy tadqiqot ishlar rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining 2021-2025-yillardagi «Mahsuldor mollarning asosiy gelmintozlariga qarshi profilaktika chora-tadbirlarini takomillashtirish va amaliyotga tadbiq etish» dasturi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Respublikamizning turli viloyat va tumanlarida chorvachilik yuritishning zamonaviy texnologiyali sharoitida tovuqlarning asosiy nematodozlari (askaridioz, geterakidoz, kapillarioz) va ularni turli geografik-iqlim mintaqalarida tarqalish darajasi, yil mavsumlari bo‘yicha dinamikasi, nematodozlarni davolash va qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishning optimal muddatlari, yangi antgelmint dorivor vositalarning antgelmint xususiyatlari va samaradorligi, bu tadqiqotlar natijalariga asoslangan “Tovuqlar nematodozlarining tarqalishi, davolash va oldini olish” bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotlarning vazifalari:**

- Respublikamizning turli geografik-iqlim mintaqalarida tovuqlarning asosiy nematodozlarini (askaridioz, geterakidoz, kapillarioz) tarqalish darajasini aniqlash;
- tovuqlar nematodozlarining tarqalishini yil mavsumlari bo‘yicha o‘zgarishi, mavsumiy dinamikasini aniqlash;
- tovuqlar nematodozlariga (askaridioz, geterakidoz, kapillarioz) qarshi yangi antgelmint preparatlar samaradorligini aniqlash va rejali gelmintizatsiya muddatlarini belgilash;
- tovuqlar nematodozlarini davolash va oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiq etish.

**Tadqiqotning obyekti** Respublikamizning turli viloyatlaridagi parrandachilik xo‘jaliklari va aholi xonadonlarida boqilayotgan tovuqlarning gelmint va gelmintozlari, yangi antgelmint preparatlar va mahalliy vositalar.

**Tadqiqotning predmeti** Gelmintologik tadqiqotlar jarayonida yig‘ilgan gelmintologik materiallar, gelmintlar, gelmint tuxumlari, tovuqlar, gelmintozlarni davolash va oldini olish chora-tadbirlari.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada epizootologik, klinik, gelmintokoprologik, patologoanatomik, to‘liq va noto‘liq gelmintologik yorib ko‘rish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Tadqiqotlar Respublikamizning 11 ta viloyatida aholi xonadonlari sharoitida boqilayotgan tovuqlar nematodozlar bilan umumiy zararlanishi 46,31% (askaridioz

bilan 25,46%, geterakidoz bilan 28,60%, kapillarioz bilan 25,74%) ekanligi aniqlangan;

tovuqlarni gelmintozlar bilan turli geografik-iqlim hududlarida zararlanish ko'rsatkichlarining yil mavsumlari kesimida dinamikasi tahlil qilinganda eng yuqori zararlanish qish faslida - 58,23%, eng past zararlanish bahor faslida - 28,97% ekanligi aniqlangan;

tovuqlar nematodozlariga qarshi degelmintizatsiyaning optimal muddatlari bahor va kuz faslida o'tkazilishi maqsadga muvofiq ekanligi aniqlangan;

tovuqlar nematodozlariga qarshi yangi antgelmint preparatlar Тетрамизол 10% kukun shaklidagi preparat o'rtacha 95,0%, Левомизол+оксиклозанид bolyus shaklidagi preparat o'rtacha 85,0% va Альбендазол 10% kukun shaklidagi preparat o'rtacha 80,0% samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan;

tadqiqot natijalari asosida tovuqlarning nematodozlariga qarshi davolash-profilaktik chora-tadbirlar bo'yicha amaliyot uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotlarning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Respublikaning turli viloyatlari va geografik-iqlim hududlarida tovuqlarning nematodalar bilan zararlanish darajasi, nematodozlarning yil mavsumlari bo'yicha o'zgarishi (dinamikasi) bo'yicha olingan ma'lumotlar nematodozlarga qarshi davolash-profilaktika chora-tadbirlarining hajmi va optimal muddatlarini aniqlashda ilmiy asos bo'lib hisoblanadi;

dissertatsiya doirasida olingan ma'lumotlar parrandachilik xo'jaliklari va aholi xonadonlarida boqilayotgan tovuqlar nematodozlariga qarshi yangi antgelmint preparatlar, mahalliy vositalar va ularni qo'llash texnologiyasi bo'yicha amaliyot uchun tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ladi;

amaliyot uchun ishlab chiqilgan tavsiyalar tovuq nematodozlariga qarshi kurashning samaradorligini oshiradi va parrandachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishga olib keladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqotlarning gelmintologiyada umum qabul qilingan uslublardan foydalanilgan holda olib borilganligi, olingan ma'lumotlar chuqur ilmiy tahlil qilinganligi, ularning nazariy asoslanganligi va amaliy ahamiyati tahlil qilinib tegishli xulosalar qilinganligi, olingan natijalarning amaliyotga tadbir qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotlar parrandachilikning hozirgi zamon texnologiyasi, fermer, shirkat, shaxsiy xo'jaliklarida va asosan aholi xonadonlarida tovuqlarni saqlash va oziqlantirish sharoitida nematodozlar bilan zararlanganlik darajasi, nematodozlarning yil mavsumlari bo'yicha dinamikasini o'rganish asosida davolash-profilaktika chora-tadbirlarining hajmi va ularni amalga oshirishning optimal muddatlarini ilmiy asoslash bilan izohlanadi.

Nematodozlarga qarshi kurashda yangi antgelmint preparatlar – Тетрамизол 10% (kukun shakli), Левомизол+оксиклозанид bolyus va Альбендазол 10% kukun shakllarining, davolash va profilaktika maqsadlarida antgelmint xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ilk bor yangi va original ma'lumotlar olingan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tovuqlar nematodozlarining tarqalishi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida:

Tovuqlarning turli nematodozlar bilan zararlanganligi, zararlanish darajasini aniqlash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar davrida (2022-2024 yillarda) jami tekshirilgan 1682 ta namunalarning 779 tasi yoki 46,31% umuman nematodozlar bilan turli xil darajada zararlanganligi aniqlangan. Nematodozlarning tarqalishi viloyatlar bo'yicha turli xil ko'rsatgichlarga ega, Respublikamizning 11 ta viloyatida 30,21 foizdan 75,0 foizgacha nematodozlar bilan ekstenszararlanish mavjudligi aniqlangan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-avgustdagi 02/23-495-son ma'lumotnomasi). Natijada tovuqlar nematodozlariga qarshi iqtisodiy tejamkor va yuqori samarali davolash usullari bo'yicha ilmiy amaliy tavsiyalar berilgan.

Tovuqlar nematodozlarining tarqalishi Respublikaning turli geografik-iqlim mintaqalarida, jumladan, sharqiy geografik iqlim-mintaqasida tekshirilgan 390 ta namunadan 102 ta namunada yoki 26,15 foizda, markaziy geografik-iqlim mintaqasida 747 ta namunadan 389 ta namunada (52,07%), janubiy geografik-iqlim mintaqasida tekshirilgan 183 ta namunadan 115 ta namunada (62,84%), janubiy g'arbiy geografik-iqlim mintaqasida esa 168 ta namunadan 79 ta namunada (47,02%) hamda g'arbiy geografik-iqlim mintaqasida tekshirilgan 194 ta namunadan 94 ta namunada (48,4%) nematodozlar bilan zararlanish mavjudligi aniqlangan hamda tovuqlar nematodozlarini davolash va oldini olish uchun yangi antelmint preparatlar sinovdan o'tkazilgan va amaliyotga joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-avgustdagi 02/23-495-son ma'lumotnomasi). Ishlab chiqilgan davolash va oldini olish chora tadbirlarini amaliyotda qo'llash natijasida aholi xonadonlarida saqlanadigan tovuqlarning nematodozlar bilan zararlanishining oldini olishga erishilgan.

Yangi antelmint preparat Левомизол+оксиклозанид 1 bolyus 30 kg tirik og'irlikka ozuqa bilan qo'llanilganda mazkur preparat tovuqlarning nematodozlariga qarshi 90,0% ekstenssamarara ko'rsatishi aniqlangan. Preparatning intenssamaradorligi turli nematodozlarga qarshi 88,89-90,0 foizni tashkil qilgan. Альбендазол 10% kukun shaklidagi preparat tajribalarda 1 kg tovuq tirik vazniga 100 milligramm hisobida ozuqasi bilan qo'llanilib 66,67-92,0% samaradorlik olingan. Yana bir yangi antelmint preparat Тетрамизол 10% kukun shaklidagi preparat tovuqlarning 1 kg tirik vazniga 200 mg hisobida bir marta ozuqasi bilan qo'llanilib 100 foizlik ekstens ham intenssamaradorlik qayd etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-avgustdagi 02/23-495-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida tovuqlarning turli nematodozlar bilan zararlanishining oldi olinib, har bir so'm qilingan xarajatga 5,67 so'm iqtisodiy samara olingan.

Tovuqlar nematodozlariga qarshi davolash va profilaktika qilishda yangi antelmint preparatlar Samarqand, Surxondaryo, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari tumanlaridagi aholi xonadonlarida boqilayotgan tovuqlarda sinovdan o'tkazilgan va amaliyotga joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-avgustdagi 02/23-495-son ma'lumotnomasi). Natijada

tovuqlarda nematodozlar bilan zararlanish darajasini 80,0-95,0 foizgacha kamaytirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotlar natijalari jami 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan 4 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma nashr qilingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya "Kirish", to'rtta bob, xulosa va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Disserattsiyaning «Kirish»** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi, tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmeti, tadqiqotlarda foydalanilgan usullar, tadqiqotlar mavzusining o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya doirasida bajarilgan tadqiqotlarning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar ma'lumotlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi 6 qismdan iborat bo'lib, "Tovuqlar gelmintozlari haqida umumiy ma'lumotlar" deb nomlangan qismida tovuqlarning keng tarqalgan gelmintozlar, ularning biologiyasi va tur tarkibi haqida hamda gelmintozlardan keladigan iqtisodiy zararlar haqida ma'lumotlar bayon etilgan. "Tovuqlar nematodozlarining epizootologiyasi" nomli qismida turli mamlakatlar va geografik-iqlim mintaqalarida hamda xo'jaliklarda nematodozlar tarqalishi, ekstens- va intenzzararlanganlik darajasi haqida ma'lumotlar berilgan. "Tovuqlar orasida askaridiozning tarqalishi" nomli qismida tovuqlar askaridiozining biologiyasi, epizootologiyasi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. "Tovuqlar orasida kapillariozning tarqalishi" nomli qismda ham kapillarioz tarqalishi, tur tarkibi, rivojlanish biologiyasi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. "Tovuqlar orasida geterakidozning tarqalishi" nomli qismida geterakidoz biologiyasi, tarqalishi, olib borilayotgan tadqiqotlar haqidagi adabiyot ma'lumotlari tahlil qilingan. "Tovuqlar nematodozlarini davolash va oldini olish chora-tadbirlari" nomli qismida nematodozlarni davolashda, ularni profilaktika qilishda degelmintizatsiyaning o'rni, antigelmintik preparatlarni qo'llash miqdori, degelmintizatsiyani o'tkazishning muddatlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Xususiy tadqiqotlar**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, ob'ekti va foydalanilgan usullar, tadqiqotlar olib borilgan geografik- haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar 2022-2024-yillar davomida Respublikamizning Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan,

Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarining ayrim tumanlaridagi tuxum yo‘nalishidagi parrandachilik xo‘jaliklari, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar va aholi xonadonlarida boqilayotgan turli yoshdagi tovuqlarda olib borildi. Tabiiy geografik iqlim-mintaqalarining tabiiy iqlim xususiyatlari, geografik joylashuvi tahlil qilindi. Hozirgi paytda mamlakatimizda umumiy hisobda 1 ming 300 ta parrandachilik xo‘jaligi mavjud bo‘lib, 2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra ushbu xo‘jaliklardagi parrandalar 15 mln 943 ming 500 boshni tashkil etadi, shundan Respublikamizda aosiy eng yirik 45 ta naslchilikka ixtisoslashgan parrandachilik xo‘jaliklari faoliyat olib boradi. Ulardan, 7 ta xo‘jalik tuxum yo‘nalishida, 38 ta xo‘jalik go‘sht yo‘nalishida final gibrid inkubatsion tuxumlar va bir kunlik jo‘jalar yetishtirish bilan shug‘ullanmoqda.

Mazkur tekshirishlarda tovuqlardan (tovuqxonadagi tovuqlar yotadigan so‘rilar ostiga polietilen to‘shama kechasi to‘shab qo‘yilib, erta tongda yig‘ib olinib kechasi tovuqlardan ajralgan tezak namunalari toza holda ya‘ni tovuqxonada to‘shamasiga tekkizmay va tovuqlar oyoqlari bilan bosib tashlamasidan toza holda) olingan tezak namunalari gelmintoovoskopiyaning ikki turi – flotatsion Fyulleborn va sedimentatsion Ketma-ket yuvish usullari bilan, gelmintolarvoskopiyaning Berman-Orlovning Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida takomillashtirilgan (Y.D.Nikolskiy) uslubi bilan “Gelmintologiya” laboratoriyasining “Motic B1” yorug‘lik mikroskopida 10x4, 10x40, 10x100 o‘lchamlarida tekshirildi, tovuqlar organizmida parazitlik qilayotgan nematodalar intensivligini aniqlashda K.I.Skyabinning to‘liq gelmintologik yorish (TGYo) hamda noto‘liq gelmintologik yorish usullaridan foydalanib amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlarning natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobi 4 qismdan iborat. Ushbu bobning “Tovuqlar nematodozlarining tarqalishi” deb nomlangan qismida Respublikamizning 11 viloyatida 1682 bosh tuxum yo‘nalishidagi yerda saqlanadigan tovuqlarda koprologik tadqiqotlar olib borilib, ma‘lum bo‘ldiki Respublikamizning turli geografik iqlim-mintaqalarida tovuqlar orasida asosan nematodozlar, askaridioz, geterakidoz va kapillarioz (nematodozlar bilan umuman 779 bosh tovuq zararlanganligi ya‘ni EZ-46,31 %) keng tarqalganligi aniqlandi.

“Sharqiy va Markaziy geografik iqlim-mintaqasi viloyatlarining ayrim tumanlarida tovuqlar orasida nematodozlarning tarqalishi” nomli qismida Respublikamizning sharqiy geografik iqlim-mintaqasi viloyatlarida tovuqlar orasida gelmintozlarni aniqlash bo‘yicha 2022-2024-yillar davomida Andijon viloyatining Izboskan, Asaka tumanlarida, Farg‘ona viloyatining Quva, Bag‘dod tumanlarida, Namangan viloyatining Pop va Chust tumanlarida 390 bosh tovuqlar dan olingan tezak namunalari gelmintoovoskopiyaning flotatsiya va sedimentatsiya usullarida tekshirildi. Mamlakatimizning markaziy geografik iqlim-mintaqasi viloyatlari hisoblangan Sirdaryo viloyatining Mirzaobod, Guliston, Boyovut, Xovos va Sardoba tumanlarida, Jizzax viloyatining Forish, Paxtakor, Sharof Rashidov tumanlarida, Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Toyloq, Ishtixon, Jomboy hamda Pastdarg‘om tumanlarida asosan yerda boqilayotgan 747 bosh tuxum yo‘nalishidagi tovuqlardan tezak namunalari olinib tekshirildi.

**1-jadval**

**Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida tovuqlarning nematodozlar bilan ekstenszararlanganligi, gelmintokoprologik tekshirishlar asosida**

T/r	Viloyatlar nomi	Umumiy bosh soni	n=747							
			askaridioz		geterakidoz		kapillarioz		Nematodozlar bilan umumiy zararlanish	
			n=	%	n=	%	n=	%	n=	%
1	Andijon viloyati	96	2	2,08	8	8,3	19	19,8	29	30,2
2	Farg‘ona viloyati	94	10	10,6	41	43,62	3	3,19	50	53,19
3	Namangan viloyati	200	7	3,5	9	4,5	11	5,5	23	11,5
<b>JAMI</b>		<b>390</b>	<b>19</b>	<b>4,87</b>	<b>58</b>	<b>14,87</b>	<b>33</b>	<b>8,46</b>	<b>102</b>	<b>26,15</b>

Olingan natijalarni tahlili Andijon viloyatida tekshirilgan 96 bosh tovuqlarning 29 boshi (30,21 %) umuman nematodozlar bilan ekstenszararlangan bo‘lib ushbu viloyatda eng ko‘p kapillarioz bilan ekstenszararlanish yuqori ekanligi ya’ni 19 bosh (19,79 %) tovuqlar zararlanganligi ma’lum bo‘ldi. Xuddi shunday Farg‘ona viloyatida tekshirilgan 94 bosh tovuqlarning 50 boshi (53,19 %) nematodozlar bilan aralash holda ekstenszararlangan, ushbu viloyatda oldingi viloyatdan farqli o‘laroq geterakidoz bilan zararlanish anchayin yuqori, tekshirilgan 94 bosh tovuqlardan 41 boshi (EZ-43,62 %) geterakidoz bilan zararlangan. Tadqiqotlarimiz davomida Namangan viloyatida qolgan ikki viloyatga nisbatan parrandachilik bir muncha yaxshi rivojlanganligining guvohi bo‘ldik. Ushbu viloyatda gelmintokoprologik tekshirilgan 200 bosh tovuqlarning 23 boshi (EZ-11,5 %) umuman gelmintozlar bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi (1-jadval).

Respublikamizning sharqiy iqlim mintaqasi viloyatlarida olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida jami 390 bosh tovuqlar biz tomonimizdan tekshirilgan bo‘lsa, ular orasida geterakidoz bilan ekstenszararlanish eng yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin ya’ni 58 bosh (EZ-14,9 %)da, undan keyin esa kapillarioz 34 bosh (EZ-8,72 %)da, 19 bosh (EZ-4,87 %)da askaridioz qo‘zg‘atuvchisi tuxumlari topildi. Yuqoridagi uch viloyatda, adabiyotlar ma’lumotlarida mamlakatimiz hududlarida uchrashi qayd etilgan singamoz bilan zararlanganlik aniqlanmadi.

Mamlakatimizning markaziy iqlim mintaqasi viloyatlarida tovuqlar orasida nematodozlarni tarqalishini aniqlash bo‘yicha Jizzax viloyatining Forish, Paxtakor va Sharof Rashidov tumanlarida jami 167 bosh tovuqlar, Sirdaryo viloyatining Mirzaobod, Guliston, Boyovut, Xovos hamda Sardoba tumanlarida aholi xonadonlarida yerda boqilayotgan 259 bosh tovuqlar, shuningdek Respublikamiz parranda sanoatida asosiy drayver desak bo‘ladigan Samarqand viloyatlarining Bulung‘ur, Toyloq, Ishtixon, Jomboy va Pastdarg‘om tumanlarida 321 bosh aholi xonadonlarida saqlanayotgan tovuqlardan tezak namunalari olinib gelmintoovoskopik tekshirildi.

**Jizzax, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida tovuqlarning nematodozlar bilan ekstenszararlanganligi, gelmintokoprologik tekshirishlar asosida**

T/r	Viloyatlar nomi	Umumiy bosh soni	n=747							
			askaridioz		geterakidoz		kapillarioz		Nematodozlar bilan umumiy zararlanish	
			n=	%	n=	%	n=	%	n=	%
1	Jizzax viloyati	167	27	16,2	27	16,2	62	37,12	70	41,91
2	Sirdaryo viloyati	259	74	28,57	79	30,50	79	30,50	131	50,58
3	Samarqand viloyati	321	144	44,86	138	42,99	136	42,36	188	58,57
<b>JAMI</b>		<b>747</b>	<b>245</b>	<b>32,80</b>	<b>244</b>	<b>32,66</b>	<b>277</b>	<b>37,08</b>	<b>389</b>	<b>52,07</b>

2022-2024-yillar davomida markaziy iqlim mintaqasi viloyatlarida tovuqlarning nematodozlar bilan ekstenszararlanishi jami hisobda 747 bosh tovuqlardan olingan tezak namunalari gelmintoovoskopiyaning Fyulleborn va Ketma-ket yuvish usullarida tekshirildi. Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra Jizzax viloyatida tekshirilgan 167 bosh tovuqning 70 boshi umuman nematodozlar bilan zararlangan va ekstenszararlanishi EZ-41,9 %, Sirdaryo viloyatida esa 259 bosh tekshirilgan tovuqning 131 boshida nematodozlar aniqlandi ekstenszararlanish 50,6 foizni tashkil qildi hamda Samarqand viloyati zararlanish ko‘rsatkichi bo‘yicha ham Respublikada yetakchilik qilmoqda, tekshirilgan tovuqlarning 188 boshida yoki EZ-58,57 % da nematodozlarning aralash holda uchrashini qayt etdik. (2-jadval)

Umumiy olganda markaziy geografik iqlim-mintaqasi viloyatlarida tekshirilgan 747 bosh yerda saqlanadigan tovuqning 389 boshida yoki 52,07 foizi nematodozlarning asosiyarlari askaridioz (32,80 %), geterakidoz (32,66 %) va kapillarioz (37,08 %) bilan aralash holda ekstenszararlanganligi bizlar olib borgan tadqiqotlarimizda aniqlandi.

“Janubiy, Janubiy-g‘arbiy va G‘arbiy geografik iqlim-mintaqasi viloyatlarining ayrim tumanlarida tovuqlar orasida nematodozlarining tarqalishi” deb nomlangan uchinchi qismida mamlakatimizning janubiy sarhadlari bo‘lgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida jami 183 bosh tovuqlardan namunalari olinib tekshirildi va umuman nematodozlar bilan zararlanish 115 bosh tovuqda aniqlandi. Nematodozlar bilan ekstenszararlanish esa janubiy viloyatlarda 62,84 foizni tashkil qildi.

Surxondaryo viloyatining tadqiqotlar olib borilgan tumanlarida jami 135 bosh tovuqlar gelmintoovoskopik tekshirilgan bo‘lib ularning 79 boshi ya‘ni EZ-58,51 foizi nematodozlar bilan umumiy ekstenszararlanganligi aniqlandi. Ushbu viloyatda geterakidoz bilan eng yuqori EZ-35,55 %, kapillarioz bilan EZ-31,1 % ekanligini va askaridioz bilan EZ-25,18 % ekstenszararlanishni ko‘rishimiz mumkin.

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi aholi xonadonlarida saqlanayotgan 48 bosh tovuqlardan tezak namunalari olinib tekshirganimizda ularning 36 tasida nematodozlar (askaridioz, geterakidoz, kapillarioz) bilan umuman


aralash holda ekstenszararlanish aniqlandi va ekstenszararlanish EZ-75 foizni tashkil etishi qayd etildi. Tekshirilgan tovuqlarimizning alohida nematodozlar bilan ekstenszararlanishi quyidagicha ekanligini ham aniqladik: askaridioz bilan EZ-47,92 %, geterakidoz bilan EZ-45,83 %, kapillarioz bilan esa EZ-29,17 % tovuqlar zararlanganligi har bir nematodoz bo'yicha ham aniqlandi. (3-jadval)

### 3-jadval

#### Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida tovuqlarning nematodozlar bilan ekstenszararlanganligi, gelmintokoprologik tekshirishlar asosida

T/r	Viloyatlar nomi	Umumiy bosh soni	n=183							
			askaridioz		geterakidoz		kapillarioz		Nematodozlar bilan umumiy zararlanish	
			n=	%	n=	%	n=	%	n=	%
1	Surxondaryo viloyati	135	34	25,18	48	35,55	42	31,11	79	58,51
2	Qashqadaryo viloyati	48	23	47,92	22	45,83	14	29,17	36	75,0
<b>JAMI</b>		<b>183</b>	<b>57</b>	<b>31,15</b>	<b>70</b>	<b>38,25</b>	<b>56</b>	<b>30,30</b>	<b>115</b>	<b>62,84</b>

Janubiy g'arbiy viloyatlarda tovuqlar orasida nematodozlarni tarqalishini aniqlash bo'yicha 2022-yilning oktabr oyida Navoiy va Buxoro viloyatlarida aholi xonadonlarida saqlanayotgan 168 bosh tovuqdan olingan tezak namunalari gelmintoovoskopiyaning flotatsiya va sedimentatsiya usullarida tekshirildi. Dastlan Navoiy viloyatining Navbahor va Qiziltepa tumanlaridagi aholi xonadonlarida saqlanayotgan 76 bosh tovuqlardan tezak namunalari olinib viloyatning veterinariya laboratoriyasida gelmintoovoskopik tekshirildi. Tekshirilgan tovuqlarning 33 boshi yoki 43,4 foizi nematodozlar bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi.



**I-rasm.** Navoiy va Buxoro viloyatlarida tovuqlarning nematodozlar bilan ekstenszararlanganligi, gelmintokoprologik tekshirishlar asosida

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalaridan ma'lum bo'ldiki Navoiy va Buxoro viloyatlari iqlimi issiq va quruq bo'lishiga qaramasdan tovuqlar orasida nematodozlar bilan zararlanish yuqori bo'lib, mos ravishda EZ-43,4 % va EZ-50,0 % ni tashkil qildi. Yana shuni alohida e'tiborga olishimiz lozim bo'ladiki Buxoro viloyatida tovuqlarning nematodozlar bilan umuman ekstenszararlanishi Navoiy viloyatiga qaraganda yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

Mamlakatimizning janubiy g'arbiy viloyatlarining tadqiqotlar olib borilgan tumanlarida 168 bosh tovuqlarning 79 boshi (EZ-47,02 %) umuman nematodozlar bilan zararlanganligini ko'rishimiz mumkin. (1-rasm)

Tekshirilgan 168 bosh tovuqlarning 79 boshi (EZ-47,02 %) umuman nematodozlar bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi. Janubit g'arbiy viloyatlarda tekshirilgan tovuqlar orasida ayniqsa geterakidoz bilan zararlanish eng yuqori darajada bo'lib 56 bosh (EZ-33,3 %)da, undan keyin esa 45 bosh (EZ-26,8 %)da askaridioz, 19 bosh (EZ-11,3 %)da kapillarioz bilan zararlanish aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida aniqlangan gelmintozlarni oldini olish va davolashga qaratilgan zamonaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqish shuningdek asosan mahalliy antgelmint vositalar yaratish va ulardan keng miqyosda foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

#### 4-jadval

#### Xorazm viloyatida tovuqlarning nematodozlar bilan ekstenszararlanganligi, gelmintokoprologik tekshirishlar asosida

Viloyatlar nomi	Umumiy bosh soni	Ekstenszararlanganlik						Nematodozlar bilan umumiy zararlanish	
		askaridioz		geterakidoz		kapillarioz		n=	%
		n=	%	n=	%	n=	%		
Xorazm viloyati	194	62	31,9	53	27,3	54	27,8	94	48,45


**G'arbiy geografik iqlim mintaqasi** Xorazm viloyatida aholi xonadonlari hamda parrandachilik xo'jaliklarida tovuqlar orasida nematodozlarni tarqalishini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni olib bordik va jami 194 bosh tovuqlarda koprologik tekshirishlar o'tkazildi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra tekshirilgan tovuqlarning 94 boshi yoki 48,4 % nematodozlar bilan ekstenszararlanganligi aniqlandi.

Xorazm viloyatida olib borilgan tadqiqotlarimizda aholi xonadonlarida saqlanayotgan 194 bosh tovuqdan tezak namunalari olinib Fyulleborn usulida tekshirildi. Shunga ko'ra tovuqlarning 62 boshida (EZ-31,9 %) askaridioz, 53 boshida (EZ-27,3 %) geterakidoz hamda 54 boshida (EZ-27,8 %) kapillarioz qo'zg'atuvchilari tuxumlari alohida morfologik differensiatsiya qilinib aniqlandi.

2022-2024-yillar mobaynida Respublikamizning jami 11 ta viloyatida tovuqlar orasida nematodozlar bilan zararlanishini aniqlash bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. (2-rasm)

Yuqoridagi rasmda tekshirishlar olib borilgan 11 ta viloyat, shuningdek ushbu viloyatlarda tekshirilgan tovuqlar bosh soni va ularning nematodozlar bilan umuman necha boshi ekstenszararlanganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shunday qilib

